

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING O‘ZBEK  
DRAMMATURGIYASIDAGI XIZMATLARI**  
(*Hayotimiz har lahzasi bir sahna asari*)

*Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna*  
*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti*  
*Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi*  
*Murtozayeva Basida Saidmurod qizi*  
*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti*  
*“Boshlang‘ich ta‘lim va gumanitar*  
*fanlar fakulteti” talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek drammaturgiyasining otasi bo‘lmish Mahmudxo‘ja Behbudiyning hozirgi dramaturgiya uchun zamina yaratganligi, teatr orqali hayotning acchiq haqiqatini jamiyat ahliga yetkazib berganligi, xalq ma‘naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari, shuningdek aholini bilim olishlikga, bilimli bo‘lishlikga da‘vat etish yo‘lidagi harakatlari, yoshlarni zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishi, “Padarkushning” tarbiyaviy ahamiyati borasida qisqacha keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** drammaturgiya, sahna, ijro, teatr, nashriyot, “Padarkush”, senzura, ilmsizlik, ma‘rifat, tarbiya, tarqqiyot, jamiyat, ma‘naviy qoloqlik.

**Аннотация.** В этой статье Махмудходжа Бехбуди, отец узбекской драматургии, создал основу нынешней драматургии, донес до людей суровую реальность жизни общества посредством театра, свои заслуги в поднятии морального духа народа, а также поощрении Кратко упоминаются действия населения по приобретению знаний и образованности на дороге, приобретение современными знаниями молодыми людьми, а также воспитательное значение «Падаркуша».

**Ключевые слова:** драматургия, сцена, спектакль, театр, издательство, «Падаркуш», цензура, невежество, просвещение, образование, развитие, общество, духовная отсталость.

**Annotation:** In this article, the father of Uzbek dramaturgy, Mahmudhoja Behbudi, laid the groundwork for today's dramaturgy, conveying the bitter truth of life to society through theater, raising the morale of the people, as well as his services in raising the morale of the population, as well as encouraging the population to learn and become educated. It was briefly touched on the activities of invitation, the acquisition of modern knowledge by young people, and the educational significance of "Padarkush".

**Key words:** dramaturgy, stage, performance, theater, publishing house, "Padarkush", censorship, ignorance, enlightenment, education, development, society, moral backwardness.

Jadidchilik harakatining buyuk namoyandalaridan biri bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand shahrining yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan bo'lib, ona tarafdan Urganch xo'jalariga borib taqaladi.

XX asr boshlarida davrdagi o'zgarishlarga mos tarzda o'zbek adabiyoti va san'atiga yangi janr kirib kela boshladi. Hayot va jamiyatda ko'rilayotgan muammolar haqida o'ylaydigan chuqur fikr yuritadigan yozuvchilar uchun g'oyatda keng imkoniyatlar ochildi. Behbudiy Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi bo'lib drammatik asar ya'ni "Padarkush" ni yaratdi. Ushbu hududda shu davrgacha turkiy tilda ham, forsiy tilda ham yaratilmagan. Behbudiy davri uchun bu juda katta o'zgarish edi. Ammo mazkur asarni ommaga olib chiqishlik va tanishtirishlik oson kechmaydi. 1996-yildagi Turkistan general-gubernatori A.Kuropatkonning o'z kundaligida yozgan va hozirgi kunda juda mashhur jumlasini "Biz tub joy xalqini, taraqqiyotdan maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik" eslash yetarli deb o'ylaymiz. Shu davrda "Kimiki sahnada ko'rsang oni jasorati bu" deb yozgan edi Tavallo. Shunday qilib, 1911-yilda yozilgan "Padarkush" drammasi 1913-yildagina nashriyot yuzini ko'rdi. "Padarkush" bosilib chiqqandan so'ng ham sahna yuzini ko'rish uchun bir yil vaqt ketdi. Zamonaviy drama ushbu davrgacha hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot odatlaridan ancha uzoq bo'lsa-da, u boshqa janrlarda farqli ravishda ko'rsatish, ijro etish xususiyatlariga ko'ra xalqimiz ko'ngliga birdek yo'l topa oldi. Mana shu tarzda yosh o'zbek drammasi vujudga keldi va jamiyatdagi jiddiy islohatlar ma'rifiy tarbiya vazifasini bajardi. "Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatr sahnasiga chiqib, "masxarabozlik" qilsa", deb yozgan edi Behbudiy. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Asarda ilk bora turkistonliklarga o'z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan. Imsizlik, jaholat, to'g'ri yo'ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta'sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini jumbushga keltirdi. Sahnada voqealarni to'g'ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko'rib yig'laydilar, mamlakat yoshlarini o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar. Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili, birinchi navbatda, ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga bog'liq ekanligini yaxshi anglab yetgan edilar. Shu tufayli "Padarkush"

dramasida bu yetilgan, hayotiy muammo eng dolzarb masala sifatida kuyunchaklik bilan ko'rsatiladi.

“Padarkush” – o‘zbek drammachiligining hamma tan olgan birinchi na‘munasidir. Mutaxassislar uni ham janr ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida tan oladilar. Behbudiy “Milliy fojia” deb nomlagan, 3 parda, 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham mazmunan nihoyatda boy va dolzarbli bilan hammaga birdek maqbul bo‘ldi desak adashmaymiz. U jaholat va nodonlikni o‘qimagan bolaning mutloqo noto‘g‘ri yo‘llarga kirib, o‘z otasining qotiliga aylanganligi haqida so‘zlaydi. Muallifning o‘zi ixcham “Milliy tragediya” deb ta‘riflagan bu asar millatning o‘z farzandlarini o‘qitish ma‘rifatli qilish, o‘zi yashayotgan jamiyatni har jihatdan rivojlantirish, bu ezgu amallarni bajarishdan bosh tortgan kishilarning qismati haqida bashorat qiladi. Behbudiy asar g‘oyasini keskin konfliktlar, to‘qnashuvlar, xarakterlar kurashi asosida ko‘rsatishdan ko‘ra dramaning ayrim qisimlarida ta‘lim-tarbiya orqali mamlakatni rivojlantirishi mumkunligini hamda turkistonlik yoshlarning ilm olishdan bosh tortishlari yomon oqibatlariga olib kelishini ko‘rsatishga, ya‘ni didaktik tasvirga urg‘u bergan.

Amerikalik olim Eduvard Olvortning fikricha, o‘sha davrda yaratilgan boshqa dramalari Behbudiyning “Padarkush” kabi muvafaqiyatli chiqmagan. Asar dialoglaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi. Bir lahzada hamma narsasidan mahrum bo‘lgan, eri o‘ldirilgan ayol shunday baqirib, dod soladi. "He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy. padarkush!" Aynan shu daqiqada Domulla Boyning xotiniga tanbeh beradi: "Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi..." [1]

Namoyishnomaning so‘nggi daqiqalarida ziyoli tomoshabinlarga qarata shunday xitob qiladi: "Agarda bularni otasi o‘qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg‘a giriftor qilgan beilmlkdir" [2]

Behbudiy asarda ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini singdirish uchun qadim turkistonliklar amal qilgan adabiy o‘yinlar, badiiy san‘atlar va qochiriqlardan mahorat ila foydalangan. Adib “Padarkush” orqali o‘z yurtdoshlarini chinakam qotil kim va u nima uchun bu jinoyatga qo‘l urgani haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi. Shu kabi holatlarni oldini olish, farovon hayot mazmunining yaratilishi ilmga borib taqalishi, xalq buni anglashishi, ushbu jiddiy mas‘alaga loqayd bo‘lmaslikni xoxlagan.

“Padarkush” birinchi marotaba Samarqonda va keyin 1914-yilning 27-fevralida Toshkentda sahna yuzini ko‘radi. Spektakl boshlanishidan oldin Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotidagi roli va o‘mi haqida nutq so‘zlab, so‘ng navbatni asar qahramonlariga beradi. Boy rolini Abdulla Avloniyning ijro etgan bo‘lsa boshqa personajlarni ham xalq ichida tanilgan insonlar mahorat bilan ijro etgan. Xalq

spektaklni juda iliq kutib olgan. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb yozadi. "Padarkush" Turkistonni junbishga keltirgan qirg'inbarot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi yoqdan, professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. Teatr hayotning oinasi bo'lganligi tufayli adib jamiyatdagi ilmsizlik illatini mana shu oina orqali xalga sodda qilib ko'rsatib bermoqlikni maqsad qilgan.

Bu asarning o'z davrida adabiy harakatchilikka yetkazgan ta'siri haqida qaydlar ko'p. Buning shohidi sifatida Abdulla Qodiriyning mashhur "1913-yillarda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim" [3] degan e'tirofini eslash kifoya. 1916-yilda Toshkentga kelib, Kolizeyda "Turon"ning qator spektakllarini ko'rgan A.N.Samoylovich yozadi: "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir" deb takidlab o'tgan [1]

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola./Z.Abdirashidov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 60- b.
2. Padarkush (Yohud o'qimagan bolaning holi). Mahmudxo'ja Behbudiy: drama--Ziyonet.uz 4-manzara.
3. Сайдулла Мирзаев. XX аср ўзбек адабиёти 76-sahifa.
4. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O'qituvchi, 2002.
1. Qosimov B. Mahmudjo'ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
4. «Oyna» jurnali, 1914 -yil , 29-son, 550-553-betlar.
5. Пясковский А. Революция 1905-1907 годов в Ташкенте. М., 1958
6. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004.
7. Д. Алимова, Д. Рашидова. Махмудходжа Бехбудий и его исторические возрения. Т. , «Маънавият», 1998.